

**OGAHYIY IJODI TIL XUSUSIYATLARINING O'RGANILISHI**  
**ANNOTATSIYA**

*Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universitetining o'qituvchisi,*

**Xaitbayeva Nazokat Adilbek qizi**

*Ushbu tezisda Ogahiy ijodining tilshunoslikdagi ilmiy talqinlari yuzasidan bir qancha ilmiy izlanishlari hamda barcha tarixiy asarlariga xos bo'lgan leksik va sintaktik xususiyatlari haqida mulohaza yuritilib, ularda forsiy izofa va izofiy zanjirning keng qo'llanganligi, murakkab sintaktik qurilmalarda fors tili sintaktik qurilishining ta'siri katta ekanligini misollar orqali ochib berildi.*

**Kalit so'zlar:** *til, nutq, leksika, termin, sheva, adabiy til, antroponim, omonim, sinonim.*

Ogahiyning adabiy merosini til nuqtayi nazaridan o'rganish o'tgan asrning yarmidan, ya'ni 50-yillaridan boshlangan bo'lib, dastlab S.Dolimovning "Ogahiy asarlari til xususiyatlari" haqida maqolasi nashr qilingan<sup>6</sup>. Ushbu maqolada olim Ogahiyning omonim va sinonim so'zlardan foydalanishdagi poetik mahoratini ochib beradi. Keyinchalik, Z.Do'simovning "Ogahiyning "Zubdat ut-tavorix" asarining leksik grammatik xususiyatlari haqida<sup>7</sup>" maqolasida asarning lisoniy o'ziga xosliklari haqida gap boradi va olim ning mavjud qo'lyozmalaridan foydalangan holda tahlil qilgan<sup>8</sup>.

E'tiborlisi shundaki, Ogahiy ijodi bugungi kunda qardosh xalqlarda ham katta qiziqish bilan o'rganilmoqda, 2001-yilda Turkiyaning Erzurum shahridagi Otaturk universitetida taniqli turk olimi prof.dr.Afrosiyob Gemalmaz rahbarligi ostida Muhammad Rizo Ogahiyning o'zbek tilida yozilgan, shoirning ko'proq o'zi yashagan muhitning amaldorlaridan qattiq shikoyat qilib yozgan she'rlarini o'z ichiga olgan "Ta'viz ul-oshiqin" devonining til xususiyatlari" (Agehi Divanı (Ta'vizü'l – aşikin)'nın Dil Özellikleri (Ses ve Şekil Bilgisi) mavzuida doktorlik dissertatsiyasini yoqlagan.

Turkiyaning Giresun universiteti Fan-adabiyot fakultetining "Turk tili va adabiyoti" kafedrasida prof.dr. Feridun Tekin Ogahiy, Mirxond va Xondamir qalamiga mansub tarixiy asarlarni turk tiliga tarjima qilaganligi e'tiborga molikdir. Olimning Ogahiy ijodi bo'yicha tadqiqot ishlari davom etmoqda<sup>9</sup>.

<sup>6</sup> Dolimov S. Ogahiy poeziyasida omonim va sinonim so'zlar. O'qituvchilar gazetasi .1957, – B.57.

<sup>7</sup> Do'simov Z. Ogahiyning "Zubdat ut-tavorix" asarining leksik xususiyatlari haqida – Toshkent.Ogahiy adabiyati: O'zbekiston, 1999. – B.37-41.

<sup>8</sup> Маггазиев А.Исследование по морфологии староузбекского языка : Автореф.дисс...д-ра фил наук. –Ташкент,1979. – С.41.

<sup>9</sup> Tekin, F.Agehi Divanı (Ta'vizü'l – aşikin)'nın Dil Özellikleri (Ses ve Şekil Bilgisi) – **Doktora tezi** (Danışman:

Prof. Dr. Efrasiyap Gemalmaz), Atatürk Üniversitesi Sosyal Bilimler Enstitüsü, Erzurum, 2001.

F.Tekin shunday yozadi: “Âgehî, tercüme ve telif olmak üzere birçok eser kaleme almıştır: 1. Dîvân: Şairin “Ta’vizü’l-âşikîn” (Aşıklar Muskası) adını verdiği eserinde on sekiz bin mısra bulunmaktadır. Bunların bin üç yüzü Farsçadır. Dîvân’da yirmiye yakın nazım şekli kullanılmıştır. Dîvân üzerine birçok çalışma yapılmıştır<sup>10</sup>.”

Jumladan, olim shoir asarlari tilidagi ijtimoy-siyosiy terminlar tarkibida qadimgi turkiy til va eski turkiy til davridan faol qo’llanib kelayotgan asl turkiycha istilohlar o’z ifodasini topgani, bu so’z- terminlar birlamchi ma’nosini deyarli aynan qolishga erishgani, ayni paytda VII-XIV asrlarda keng ishlatilgan tub turkiycha istilohlarning ma’lum qismini Ogahiy davri o’zbek adabiy tili so’z boyligidan chiqib ketgani, buning sababi esa ko’p sonli o’zlashmalar va yangidan yasalgan leksik birliklar ekanligini izohlab keltirgan.

Xulosa o’rnida shuni ta’kidlash joizki, Ogahiy ijodi nafaqat mazmun va mavzular jihatdan xilma xil, balki janrlar xilma xilligi bilan ham ajralib, adibni serqirra ijodkor ekanligini isbotlaydi. Albatta, bu jarayonda rus sharqshunoslarining ham o’ziga xos hissalar bor. Mashhur sharqshunos olim V.V.Bartold fikricha, “Munis va Ogahiy tomonidan yaratilgan adabiy va tarixiy asarlarning qanchalik kamchiligi bo’lmasin, tarixiy voqealarni bayon etish va ularda keltirilgan faktik materiallarning ko’pligi jihatidan Qo’qon va Buxoro xonliklariga doir bizgacha yetib kelgan hamma asarlarni o’zidan ortda qoldirganligi bial ham beqiyosdir.

#### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO’YXATI:**

1. Ahmedov A. Muhammad Rizo Ogahiyning forsiy merosi. – Toshkent O’zbek tili va adabiyoti, 1895, – B.46-51
2. Дадабоев Х. Огаҳий тарихий асарларидаги ижтимоий -сиёсий терминлар тизими хусусида. Ўзбек тилшунослигининг долзарб масалалари (Илмий мақолалар тўплами). №3. Тошкент. 2009.Б. 21- 24.
3. Долимов С. Огаҳий роэзиясида омоним ва синоним сўзлар. Ўқитувчилар газетаси. 1957. Б.57.
4. Дўсимов З. Огаҳийнинг “Зубдат ул таворих” асарининг лексик хусусиятлари ҳақида.Огаҳий абадияти. Тошкент. Ўзбекистон. 1999. Б.37- 41.
5. Комил Аваз,Огаҳий номидаги жамғарманинг фахрий раиси “Жаҳон адабиёти” журнали, 2009 йил 10-сон.
6. Mahmudov N. O’xshatishlarning til va nutqdagi o’rni. –Toshkent: Mumtoz so’z, 2017.
7. Махмудов Н. Ухшатишлар – образли тафаккур махсули. Узбек тили ва адабиёти, 2011, 3-сон.

<sup>10</sup> Tarjimasi: Ogahiy qalamiga mansub bir necha asar va tarjimalar bor: 1. Devon: shoirning “Ta’viz ul-oshiqin” (“Oshiqlar tumori”) deb nomlangan asari o’n sakkiz ming misradan iborat. Bulardan bir ming uch yuz misrasi forschadir. Devonda yigirmaga yaqin nazmiy shakl qo’llanilgan. Devon ustida juda ko’p tadqiqotlar olib borilgan.